| | |
|---|---|
| | murojaatnomasidan kelib chiqqan holda fanning vazifalari. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish masalalarini o‘rganish.<br>3 Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.<br>4 Қўзиев И., Туйчиев А., Хожиев М., Якубов М. Внутренний аудит. Учебное пособие. –Т.: “иктисод-молия”, 2019. – 420 с.<br>5 Qo’ziyev I.N., Hamdamov B.K., Avazov I.R., Ochilav F.Sh. Auditning xalqaro standartlari. Elektron darslik. –T.: TMI. 2021 y.<br>6 Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo‘llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent – 2023<br><br>**Internet saytlari**<br>1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali<br>2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi<br>3. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti<br>4. www.ziyonet.uz – Axborot-ta’lim portali |
| 7. | **Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul’ uchun ma’sullar:**<br>I.Q.Sirojiddinov – NamMQI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, i.f.n.<br>A.B.Isomuxamedov – NamMQI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi stajyor o‘qituvchi. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>U.Xolmirzayev – NamMQI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)<br>O.Sobirov – NamMTI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD). |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

NamMQI
O‘quv-uslubiy boshqarma
№ 240
«3» 07 2024 y.

**“Tasdiqlayman”**
O’quv ishlari
bo‘yicha prorektor
_____ Q.Inoyatov
2024 yil “3” 07

# AUDIT
**fanining**

ISHCHI O‘QUV DASTURI
**(SILLABUS)**
**(sirtqi)**
**(ikkinchi mutaxassislik (sirtqi))**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400 000 - Biznes, boshqaruv va xuquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 410 000 - Biznes va boshqaruv |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60410100 - Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) |

Namangan-2024

| Fan/modul' kodi AUDI1709 | | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 5-6-7 | Kreditlar 2+3+5 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul' turi majburiy | | Ta'lim turi O'zbek | Haftadagi dars soatlari 2+3+6 | |
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil Ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Audit** | **44**<br>*5-semestr* (4 m/4 a)<br>*6-semestr* (4 m/8 a)<br>*7-semestr* (12 m/12 a) | **256**<br>*5-semestir (52)*<br>*6-semestir (78)*<br>*7-semestir (126)*<br>*+kurs ishi* | **300**<br>*5-semestir (60)*<br>*6-semestir (90)*<br>*7-semestir (150)*<br>*+kurs ishi* |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarda buxgalteriya hisobining ob'ektlari (xo'jalik mablag'lari va ularning kelib chiqish manbalari, ularning xo'jalik yuritish jarayonidagi xarakati, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va umumlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy, moliyaviy faoliyati tug'risidagi to'liq ishonarli ma'lumotlarni shakllantirish hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida taqdim etish, moliyaviy va boshqaruv hisobini tashkil qilish, uning normativ xuquqiy asoslari) bo'yicha yo'nalishiga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish hisoblanadi.

**Fanning vazifasi** - talabalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda mablag'lar, ularning tashkil topish manbalarining xarakatini tug'ri ettirish, hisobotlarni tuzish, moliyaviy hisobot ma'lumotlarini shaffofligini ta'minlash, boshqa sub'ektlar bilan hisob siyosati to'g'ri tashkil etilishini qonunlar, qarorlar va boshqa normativ hujjatlar o'rganishlari va o'zlashtirishlari, bilim, ko'nikma va malakalari shakllanishi hisoblanadi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-Modul. Auditning nazariy asoslari(5-semestr uchun).**

***1-mavzu. Auditga umumiy tavsif**

Auditning mohiyati va rivojlanish tarixi. Auditning maqsadi va vazifalari. Auditning rivojlanish bosqichlari. Tasdiqlovchi audit. Maqsadli sistemali audit. Tavakkalchilikka asoslangan audit. O'zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o'rni. Audit va buxgalteriya hisobining farqli



jihatlari. Auditning turlari va shakllari. Moc keluvchanlik auditi. Operatsion audit. Moliyaviy hisobot auditi. Ichki audit. Tashqi audit. Audit xizmatlari bozorining rivojlanish istiqbollari tahlili.

**2-mavzu. Auditning normativ-huquqiy asoslari.**

Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun va boshqa normativ - huquqiy hujjatlar sharhi. Audit standartlari haqida tushuncha, ularning ahamiyati va turlari tavsifi. Auditorlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berish, litsenziya berishni rad etish, litsenziyaning amal qilish muddatini to'xtatish, bekor qilish, to'xtatib turish yoki amal qilishini tiklash. Auditorlik kasbiga qo'yiladigan malakaviy talablar. Auditor malaka sertifikatini berish, amal qilish muddatini uzaytirish, qayta rasmiylashtirish va dublikatini berish tartibi. Auditorlik faoliyatini tartibga solishda professional tashkilotlar roli.

***3-mavzu. Auditorning kasb etikasi**

Auditorlik etika haqida tushuncha. Auditning axloq kodeksining mazmuni va uning asosiy talablari hamda tamoyillari. Auditda vijdonlilik va ob'ektivlik. Professional kompetentlilik. Maxfiylik. Omma uchun axborotni taqdim etish. Boshqa auditorlar bilan munosabatlar. Auditorlik tashkiloti va auditorlarning mustaqilligi. Umuminsoniy ahloq qoidalari va ma'naviy me'yorlarga rioya qilish. Auditorning xolisligi va kasbiy vakolatliligi. Auditor ish sifatini nazorat qilish tartibi. Ish sifatini nazorat qilishning dastlabki, joriy va keyingi nazorat bosqichlari.

***4-mavzu. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish**

Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning tamoyillari va bosqichlari. Auditorlik tekshiruviga mijozni jalb qilish va dastlabki rejalashtirish. Auditorlik shartnomasi mazmuni va uning shartlarini kelishish xususiyatlari. Auditorlik umumiy rejasi va auditorlik dasturini tuzish tartibi. Auditorlik umumiy rejasi, dasturi va auditorlik xizmatini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani rasimylashtirish va ulardan foydalanish xususiyatlari.

***5-mavzu. Auditorlik tekshiruvida muhimlik va risk**

Auditda muhimlik. Muhimlik darajasini aniqlashda bazaviy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish tartibi. Muhimlik darajasini aniqlash tartibi va uni auditda qo'llash. Muhimlik darajasini auditda qo'llash tartibi. Auditorlik riski va uning yuzaga kelish sabablari. Auditorlik risklarning maqbul to'plami. Auditorlik risklar maqbul to'plamining elementlarini baholash. Auditorlik riskini aniqlash modeli. Auditorlik riskiga ta'sir qiluvchi omillar. Muhimlik darajasi va auditorlik riski tushunchalarining o'zaro bog'liqligi.

***6-mavzu. Auditorlik tekshiruvida firibgarlikni aniqlash**

Firibgarlik tushunchasi. Firibgarlik uchburchagi. Firibgarlik oqibatidagi muhim buzib ko'rsatishning riskini aniqlash va baholash. Moliyaviy hisobotdagi

firibgarliklar. Firibgarlikni oldini olish va aniqlash. Firibgarlik aniqlanganida auditorning hatti-harakati. Auditor uchun kelishuvni davom ettirish imkonsizligi.

**7-mavzu. Auditorlik tekshiruvi jarayonida ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash**

Tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyatini o'rganish. Buxgalteriya hisobining tashkil etilishini o'rganish. Korxona buxgalteriyasining tashkiliy tuzilmasi, tashkiliy tuzilmada ko'rsatilgan har bir xodimning vazifalari va mas'uliyatlarining bayoni; hisob tsiklining muhim uchastkalari bo'yicha hujjatlar aylanish reja-grafigini tekshirish. Korxona hisob siyosatini o'rganish. Ichki nazorat tizimini tashkil etishda qo'yiladigan maqsadlar. Ichki nazorat tizimining mohiyati va uni o'rganishdan maqsad. Ichki nazorat tizimining elementlari. Ichki nazorat tizimini o'rganish va baholashni hujjatlashtirish. Audit strategiyasini ishlab chiqish. Nazorat riskini baholash.

***8-mavzu. Auditorlik dalillar**

Auditorlik dalillarining mohiyati va uning ishonchliligini belgilovchi mezonlar. Ekspert ishlaridan va boshqa auditor ishi natijalaridan dalil sifatida foydalanish xususiyatlari, auditorlik tekshiruvi bosqichlarida dalillarni to'plash tartibi, xo'jalik subyektlari tomonidan tekshiriladigan hujjatlarni auditorlarga to'liq hajmda taqdim etilishini ta'minlash tartibi, dalillarni to'plashda moliyaviy hujjatlardagi nomuvofiqliklarni aniqlash ketma-ketligi

***9-mavzu. Tahliliy amallar**

Tahliliy amallar mazmuni va ularni qo'llash maqsadlari. Tahliliy amallar turlari tavsifi. Auditorlik tekshiruvi bosqichlarida tahliliy amallarni bajarish tartibi. Tahliliy amallar natijalaridan foydalanish va ular samaradorligini baholash xususiyatlari. Auditorlik tanlash mazmuni va uni amalga oshirish tartibi. Auditorlik tekshiruvida firibgarlikni aniqlash amallari tavsifi

**2-Modul. Auditning xalqaro standartlari(6-semestr uchun).**
**10-Mavzu. Audit o'tkazish jarayonida ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'yicha auditning xalqaro standartlari**

Auditning xalqaro standartlarining, mazmuni, ahamiyati va tarkibi. Auditning xalqaro standartlarini maqsadi va umumiy tamoyillari. Auditorlik tekshiruvini tashkil etish bilan bog'liq standartlar. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan bog'liq standartlar. Audit o'tkazish jarayonida ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'yicha auditning xalqaro standartlari. Audit o'tkazuvchi shaxs tomonidan qonun va me'yoriy hujjatlarga amal qilinishini aniqlash. Xato va firibgarliklar mavjud holat va jarayonlarni tahlil qilish. Moliyaviy hisobot sanasidan so'ng ro'y berishi mumkin bo'lgan holatlarni baholash. Audit o'tkazuvchi shaxs faoliyati uzluksizligini baholash.

***11-Mavzu. Auditorlik xulosa va takliflarining xalqaro standartlari**

Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash. Auditorlik



hisoboti va uning tarkibi. Auditorlik xulosasi va uning turlari. Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosalari. Tekshiruvdan o'tkazilayotgan moliyaviy hisobot tarkibi bo'yicha taqqoslash o'tkazish usullari. Moliyaviy hisobot tarkibiga kiruvchi ilova va tushuntirishlar, ularni baholash tartibi. Auditning maxsus jabhalari. Maxsus audit topshiriqlari yuzasidan auditorlik hisobotlari. Istiqbol uchun tayyorlangan moliyaviy ma'lumotni tekshirish. Kompyuterli ma'lumotlar tizimi muhitida audit o'tkazish xususiyatlari. Xalqaro auditorlik nazorati amaliyoti yo'riqnomasidagi boshqa savollar.

***12-mavzu. Ta'minot jarayoni auditi**

Ta'minot jarayoni auditini tashkil qilish. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditi. Asosiy vositalar kirimiga doir muomalalarni hujjatlashtirish, schyotlarda aks ettirishning to'g'riligini tekshirish. Nomoddiy aktivlar kirimi hisobi to'g'riligini tekshirish. Tovar-moddiy zahiralar kirimi hisobini tekshirishning xususiyatlari. Tovar-moddiy zahiralarni kirim qilish va ishlab chiqarishga sarflash vaqtida baholashning to'g'riligini tekshirish.

**13-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni auditi**

Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni. Korxona faoliyatida ishlab chiqarish jarayoni auditining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari. Korxonada ishlab chiqarish xarajatlari auditini o'tkazishni rejalashtirish. Korxona faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari auditini o'tkazish tartibi. Tekshiruv jarayonida olingan ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish xarajatlari auditi natijalarini umumlashtirish.

***14-mavzu. Mehnat haqi hisobi va to'lash jarayoni auditi**

Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditining me'yoriy asoslari. Aktsiodorlik jamiyatlarida mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar auditining maqsadi, vazifalari va manbalari. Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar auditini rejalashtirish bosqichi. Xodimlar bilan mehnat haqi va boshqa muomalalar bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish.

**3-Modul. Aktiv va majburiyatlar, xususiy kapital va moliyaviy natijalar auditi(7-semestr uchun).**
**15-mavzu. Majburiyatlar auditining xususiyatlari**

Majburiyatlar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari. Byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlar bo'yicha majburiyatlar auditi. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashish muomalalari auditi. Xaridor va buyurtmachilar bo'yicha majburiyatlar auditining xususiyatlari. Bank kreditlari va ijara muomalalari bo'yicha majburiyatlar auditini o'tkazish tartibi.

**16-mavzu. Xususiy kapital shakllanishi va taqsimlanishi hamda ta'sischilar bilan hisoblashishlar auditi**

Xususiy kapital auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari. Ustav kapitali auditining xususiyatlari. Ta'sis hujjatlarini tekshirish tartibi. Qo'shilgan va

rezerv kapitali auditini o'tkazish tartibi. Taqsimlanmagan foydaning shakllanishi va taqsimlanishining auditi. Xususiy kapital auditi natijalarini hujjatlashtirish va baholash tartibi

**17-mavzu. Moliyaviy natijalar auditi**

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy natijalari auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari. Mahsulot(ish, xizmat)larni sotilishi va undan ko'rilgan moliyaviy natijalar auditining xususiyatlari. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar auditi. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni tekshirish tartibi. Yakuniy moliyaviy natija auditining xususiyatlari.

**18-mavzu. Moliyaviy natijalar auditi**

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy natijalari auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari. Mahsulot(ish, xizmat)larni sotilishi va undan ko'rilgan moliyaviy natijalar auditining xususiyatlari. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar auditi. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni tekshirish tartibi. Yakuniy moliyaviy natija auditining xususiyatlari.

**19-mavzu. Ichki audit xizmatini tashkil etish**

Ichki audit tushunchasi, uning maqsad va vazifalari. Ichki audit turlari, uning tashqi audit va taftish komissiyasidan farqli jihatlari. Ichki nazorat xizmatini tashkil etish shakllari. Korxonalarda ichki audit xizmatini tashkil etish bosqichlari. Ichki auditning korxonaning boshqa xizmatlari va bo'limlari bilan o'zaro bog'liqligi. Ichki audit xizmatining funktsiyalari, huquqlari va majburiyatlari. Ichki auditorlarga qo'yilgan malakaviy va axloqiy talablar. Ichki auditorlik tekshiruvini avtomatlashtirish xususiyatlari.

**20-mavzu. Ichki auditni o'tkazish xususiyatlari**

Ichki audit metodikasining xususiyatlari. Ichki audit jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini o'rganish. Ichki auditni o'tkazish bosqichlari tavsifi. Mulk va majburiyatlar inventarizatsiyasi. Hisobning alohida bo'linmalarida ichki auditni o'tkazish tartibi. Ichki audit ishi natijalarini hujjatlashtirish va baholash tartibi.

**"Audit" fanidan ma'ruza mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:**

**(5-semestr uchun)**

| № | Mavzuning nomi | Ajratilgan soat |
|---|---|---|
| 2 | Auditning normativ-huquqiy asoslari. | 2 |
| 7 | Auditorlik tekshiruvi jarayonida ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash | 2 |
| | JAMI | 4 |

**(6-semestr uchun)**



| № | Mavzuning nomi | Ajratilgan soat |
|---|---|---|
| 10 | Audit o'tkazish jarayonida ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'yicha auditning xalqaro standartlari | 2 |
| 13 | Ishlab chiqarish jarayoni auditi | 2 |
| | JAMI | 4 |

**(7-semestr uchun)**

| № | Mavzuning nomi | Ajratilgan soat |
|---|---|---|
| 15 | Majburiyatlar auditining xususiyatlari | 2 |
| 16 | Xususiy kapital shakllanishi va taqsimlanishi hamda ta'sischilar bilan hisoblashishlar auditi | 2 |
| 17 | Moliyaviy natijalar auditi | 2 |
| 18 | Moliyaviy natijalar auditi | |
| 19 | Ichki audit xizmatini tashkil etish | 2 |
| 20 | Ichki auditni o'tkazish xususiyatlari | 2 |
| | JAMI | 12 |

*Izoh: Yuqorida yulduzcha (*)bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.*

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

**1-Modul. Auditning nazariy asoslari(5-semestr uchun).**

1. Auditga umumiy tavsif.*
2. Auditning normativ-huquqiy asoslari.*
3. Auditorning kasb etikasi.
4. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish.*
5. Auditorlik tekshiruvida muhimlik va risk.*
6. Auditorlik tekshiruvida firibgarlikni aniqlash.*
7. Auditorlik tekshiruvi jarayonida ichki nazorat tizimini o'rganish hamda

baholash.*

8. Auditorlik dalillar.
9. Tahliliy amallar.*

**2-Modul. Auditning xalqaro standartlari(6-semestr uchun).**

10. Audit o'tkazish jarayonida ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'yicha auditning xalqaro standartlari.
11. Auditorlik xulosa va takliflarining xalqaro standartlari.
12. Ta'minot jarayoni auditi.
13. Ishlab chiqarish jarayoni auditi.*
14. Mehnat haqi hisobi va to'lash jarayoni auditi.

**3-Modul. Aktiv va majburiyatlar, xususiy kapital va moliyaviy natijalar auditi(7-semestr uchun).**

15. Majburiyatlar auditining xususiyatlari*
16. Xususiy kapital shakllanishi va taqsimlanishi hamda ta'sischilar bilan hisoblashishlar auditi.
17. Moliyaviy natijalar auditi.
18. Ichki audit xizmatini tashkil etish.
19. Ichki auditni o'tkazish xususiyatlari.

**"Audit" fanidan amaliy mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi(5-semestr uchun)**

| № | Mavzuning nomi | Ajratilgan soat |
|---|---|---|
| 1 | Auditorning kasb etikasi. | 2 |
| 2 | Auditorlik dalillar. | 2 |
| | **JAMI** | **4** |

**(6-semestr uchun)**

| № | Mavzuning nomi | Ajratilgan soat |
|---|---|---|
| 1 | Audit o'tkazish jarayonida ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'yicha auditning xalqaro standartlari. | 2 |
| 2 | Auditorlik xulosa va takliflarining xalqaro standartlari. | 2 |
| 3 | Ta'minot jarayoni auditi. | 2 |
| 4 | Mehnat haqi hisobi va to'lash jarayoni auditi. | 2 |
| | **JAMI** | **8** |

**(7-semestr uchun)**

| № | Mavzuning nomi | Ajratilgan soat |
|---|---|---|
| 1 | Xususiy kapital shakllanishi va taqsimlanishi hamda ta'sischilar bilan hisoblashishlar auditi. | 2 |
| 2 | Xususiy kapital shakllanishi va taqsimlanishi hamda ta'sischilar bilan hisoblashishlar auditi. | 2 |
| 3 | Moliyaviy natijalar auditi. | 2 |
| 4 | Moliyaviy natijalar auditi. | 2 |
| 5 | Ichki audit xizmatini tashkil etish. | 2 |
| 6 | Ichki auditni o'tkazish xususiyatlari | 2 |
| | **JAMI** | **12** |



***Izoh:*** *Yuqorida yulduzcha (*)bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.*

**Amaliy mashg'ulotning mazmuniga quyiladigan talablar:**

1. tavsiya etilayotgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini ta'minlash;
2. muhokamaga munozarali savollar olib chiqish;
3. muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko'rib chiqish;
4. nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib berish;
5. muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan aloqasini ta'minlash;
6. tegishli mavzular bo'yicha masalalar ishlash;
7. ko'rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilganligi.

**IV. Mustaqil ta`lim uchun topshiriqlar**

Mustaqil topshiriq uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

Mustaqil topshiriqning turli shakllari mavjud bo'lib, unda talaba o'qituvchi rahbarligida fan bo'yicha yangi bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshira oladi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;

tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zgartirish;

avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi, nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;

maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

yangi texnikalarni, apparaturalarni, ilmtalab jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;

talabaning ilmiy tekshirish ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;

faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (xizmat o'yinlari, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.)

masofaviy (distantsion) ta'lim.

o'quv qo'llanmalari yordamida fan mavzularini o'rganish.

**Talabalar Mustaqil ta`lim uchun topshiriqlarning mazmuni va hajmi**

**1-Modul. Auditning nazariy asoslari(5-semestr uchun).**

1. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy nazorat tizimida auditning roli.
2. Auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari.
3. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari.
4. Auditor ishi sifatini nazorat qilish.
5. Auditorlik tekshiruvi ishchi dasturi.
6. Ichki nazorat tizimini o'rganish.
7. Auditorlik tashkilotining ish hujjatlari.
8. Auditorlik dalillari.
9. Boshqa auditorlarning ishi natijalaridan foydalanish.

**2-Modul. Auditning xalqaro standartlari(6-semestr uchun).**

1. Iqtisodiy munosabatlar tizimida auditning xalqaro standartlari o'rni va ahamiyati.
2. Auditning xalqaro standartlarini sinflashtirish va O'zbekiston Respublikasida qo'llash masalalari.
3. Moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi.
4. Xalqaro amaliyotda auditor etikasi.
5. Auditning xalqaro standartlarini maqsadi va umumiy tamoyillari.

**3-Modul. Aktiv va majburiyatlar, xususiy kapital va moliyaviy natijalar auditi(7-semestr uchun).**

6. Ichki nazorat tizimi va tavakkalchilikni baholash.
7. Auditorlik tekshiruvini xujjatlashtirish.
8. Auditda tanlash va tanlov o'tkazish usullari.
9. Audit o'tkazish jarayonida boshqa shaxslarning malumotlaridan foydalanish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## V. Nazorat topshiriqlari uchun tavsiya etiladigan mavzular va ularni bajarish uchun qo'yiladigan talablar

**1-Modul. Auditning nazariy asoslari bo'yicha (5-semestr uchun).**

1) Auditga umumiy tavsifini o'rganish.
2) Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonini tashkil etishni o'rganish.
3) Auditorlik tekshiruvida muhimlik va risk ko'rsatkichlarini tahlil etish.



**2-Modul. Auditning xalqaro standartlari bo'yicha(6-semestr uchun).**

1) Auditorlik xulosa va takliflarining xalqaro standartlarini o'rganish.
2) Ta'minot jarayoni auditini tashkil qilishni o'rganish.
3) Korxona faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari auditini o'tkazish tartibi.

**3-Modul. Aktiv va majburiyatlar, xususiy kapital va moliyaviy natijalar auditi(7-semestr uchun).**

1) Taqsimlanmagan foydaning shakllanishi va taqsimlanishining auditini o'rganish.
2) Ichki auditni o'tkazish bosqichlari tavsifi o'rganish.
3) Mulk va majburiyatlar inventarizatsiyasini tashkil etishni o'rganish.

Nazorat topshiriqlari talabalarga semestrning boshlanish haftasida professor o'qituvchilar tomonidan taqdim etiladi va talabalar berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatmalar asosida kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a'zolariga (tasdiqlangan grafik bo'yicha) yakuniy nazorat topshirish kuniga qadar amalga oshiriladi.

**Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar**

Kurs ishi talabalarning dastlabki ilmiy ishi hisoblanadi. Kurs ishlari talabalar mustaqil ishlarining bir shakli bo'lib, uni muvaffaqiyatli bajarish uchun fan to'g'risida aniq tassavurlarga ega bo'lishlari kerak. Talabalar kurs ishining ilmiy, nazariy, g'oyaviy darajasiga, shuningdek, uning yozilishi va rasmiylashtirish tartibiga e'tibor berishlari lozim.

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs hajmining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

**Tavsiya etilayotgan kurs ishi mavzulari:**

1. Auditni tashkil qilishning xuquqiy va me'yoriy asoslari tashkil qilish.
2. Auditni tashkil qilishning asosiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatilari.
3. Iqtisodiy munosabatlar tizimida auditning xalqaro standartlari o'rni va ahamiyati.
4. Auditning xalqaro standartlarini sinflashtirish va O'zbekiston Respublikasida qo'llash masalalari.
5. Moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi.
6. Xalqaro amaliyotda auditor etikasi.
7. Auditning xalqaro standartlarini maqsadi va umumiy tamoyillari.
8. Ichki nazorat tizimi va tavakkalchilikni baholash.
9. Auditorlik tekshiruvini xujjatlashtirish.
10. Auditda tanlash va tanlov o'tkazish usullari.

11. Audit o'tkazish jarayonida boshqa shaxslarning malumotlaridan foydalanish.
12. Tekshiriluvchi subyekt rahbariyatining bildirishnoma va arizalari.
13. Audit o'tkazuvchi shaxs tomonidan qonun va me'yoriy hujjatlarga amal qilinishini aniqlash.
14. Xato va firibgarliklar mavjud holat va jarayonlarni tahlil qilish.
15. Moliyaviy hisobot sanasidan so'ng ro'y berishi mumkin bo'lgan holatlarni baholash.
16. Audit o'tkazuvchi shaxs faoliyati uzluksizligini baholash.
17. Audit ish sifati nazoratini o'tkazish usullari.
18. Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosalari.
19. Tekshiruvdan o'tkazilayotgan moliyaviy hisobot tarkibi bo'yicha taqqoslash o'tkazish usullari.
20. Moliyaviy hisobot tarkibiga kiruvchi ilova va tushuntirishlar, ularni baholash tartibi.
21. Auditning maxsus jabhalari.
22. Maxsus audit topshiriqlari yuzasidan auditorlik hisobotlari.
23. Istiqbol uchun tayyorlangan moliyaviy ma'lumotni tekshirish.
24. Auditning xalqaro standartlari asosida auditga xizmat ko'rsatish.
25. Moliyaviy hisobot ko'lamini aniqlash.
26. Kelishilgan usullarni qo'llash. Moliyaviy ma'lumot tayyorlash.
27. Audit o'tkazish jarayonida kompyuterli ma'lumotlar tizimini tushuntiruvchi yo'riqnomalar.
28. Kompyuterli ma'lumotlar tizimi muhitida audit o'tkazish xususiyatlari.
29. Auditorning banklar bilan aloqasini tartibga soluvchi yo'riqnomalar.
30. Tashqi auditorlar va bank inspektorlari aloqalari.
31. Xalqaro tijorat banklari auditi. Kichik korxonalar auditining xususiyatlari.
32. Xalqaro auditorlik nazorati amaliyoti yo'riqnomasidagi boshqa savollar.
33. 31.Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash.
34. Xo'jalik usuli va pudrat usulida bajarilgan ta'mirlash ishlari auditining xususiyatlari.
35. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va hisobda aks ettirishning to'g'riligini tekshirish.
36. Moliyaviy investitsiyalarning daromadliligi, olingan daromadlarning to'liq aks ettirilishi va soliqqa tortilishini tekshirish.
37. Tugallanmagan ishlab chiqarishni tekshirish.
38. Tayyor mahsulotlarni jo'natish bo'yicha muomalalar to'g'riligining auditi.
39. Bankdagi maxsus schyotlardagi pul mablag'lari sintetik hisobining to'g'riligi va to'liqligini tekshirish.
40. Ta'sis hujjatlarini tekshirish.
41. Xususiy kapital shakllanishi va taqsimlanishi bo'yicha hisob hujjatlarini tekshirish xususiyatlari.
42. Sintetik va analitik hisob registrlari auditi.



43. Davr xarajatlarini tekshirish.
44. Moliyaviy faoliyat buyicha olingan daromadlar auditi.
45. Moliyaviy faoliyat bo'yicha qilingan xarajatlar auditi.
46. Sof foyda (zarar) shakllanishi auditi.
47. Korxonani boshqarish tizimida moliyaviy nazoratning o'rni.
48. Ichki audit tushunchasi, uning maqsad va vazifalari.
49. Ichki audit xususiyatlari va ichki audit turlari.
50. Ichki auditni tashkil qilish bo'yicha xalqaro talablar.
51. Ichki auditning O'zbekiston Respublikasida me'yoriy tartibga solish.
52. Ichki audit xizmati xodimlarining huquq va majburiyatlari.
53. Ichki audit xizmatining ishini rejalashtirish.
54. Ichki auditning rejasi va dasturini tuzish.
55. Auditorlik tekshiruviga tayyorgarlik ko'rish.
56. Ichki audit metodikasining xususiyatlari.
57. Mulk va majburiyatlar inventarizatsiyasi va nazorat, tekshiruv va o'lchov.
58. Alohida hujjatlar va ularning bir turdagi va o'zaro bog'liq muomalalari bo'yicha uyg'unligini tekshirish metodlari.
59. Ichki audit jarayonida qo'llaniladigan metodlar tavsifi.
60. Biznes-jarayon tushunchasi, "Ishlab chiqarish" biznes jarayonining ichki auditi.

**Bugungi kun davr talabidan kelib chiqib, Iqtisodiyotdagi dolzarb mavzular ham qo'shimcha sifatida kurs ishi rahbari bilan kelishgan holatda talaba tomonida bajarilishi ham mumkin.*

Kurs ishi mavzularidan talabalar ixtiyoriy bitta mavzuni tanlab shu mavzu bo'yicha talabalar tomonidan kurs ishi tayyorlash va uni himoya qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

«Buxgalteriya hisobi va audit» bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha sirtqi tahsil olayotgan talabalar uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

-kursni o'rganish jarayonida talabalar har bir o'tilgan mavzu bo'yicha belgilangan hajmda reyting ballarini to'plashlari, kursning «tayanch» so'z va iboralarini chuqur o'zlashtirishlari, test savollari asosida o'z bilimlarini sanab borishlari lozim;

-o'qitish jarayonining oraliq va yakuniy baholash haftalarida yozma nazorat ishlarini bajarishlari, mustaqil ish sifatida referatlar tayyorlashlari, fanga oid chizmalar va jadvallar tayyorlab kelishlari lozim.

Shu bilan bir qatorda:

- boshqariladigan bozor iqtisodiyoti sharoitida auditning mohiyati, o'rni va ahamiyati; -auditning vazifalari va tamoyillarining amaldagi ahamiyati; auditning ilmiy-tadqiqot usullari va ularning umumiqtisodiy usullar bilan o'zaro bog'liqligi;

| | |
|---|---|
| | auditning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tashkil etish tamoillari va ular samaradorligining ilmiy-nazariy jihatlari to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi;* **(bilim)**<br>- auditning ilmiy-nazariy jihatlarini; auditning turlarini; auditning bajaradigan funksiyalarini; auditda qo'llaniladigan usullar; auditning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini boshqarishdagi o'rni va ahamiyatini *bilishi va ulardan foydalana olishi*; **(ko'nikma)**<br>- auditga oid mahalliy ilmiy va o'quv adabiyotlarinini o'rganish; auditga oid xorijiy ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganish; internet tarmog'i orqali auditga doir ma'lumotlarni, tahlil to'g'risidagi ilmiy-ommabop jurnallardan foydalanish; auditning alohida mavzulari bo'yicha *ko'nikmalarga ega bo'lishi* kerak. **(malaka)** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mintaqaviy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyhalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fandan talabalarni bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test nazoratini topshirish.<br>**Diqqat!** Topshiriqlar va nazorat ishlari dedlayn (qat'iy belgilangan vaqt) tarzida shakllantiriladi va talabalar tomonidan bajarish muddatida platformaga joylashtiriladi. Muddat yakunlanganidan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.<br>**Talabalar bilimini baholash mezonlari**<br>Audit fanidan talabalarni baholashda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga qatnashishi va unda olgan baholarini inobatga olinadi.<br>1. Oraliq nazorati ma'ruza, amaliy mashg'ulotlaridagi mavzularni qamrab oladi. Talabaning nazorat topshiriqlarini topshirish jarayonida to'plagan bali oraliq nazorat bali hisoblanadi. |



| | |
|---|---|
| | **OB=N.T(1,2,3) +A.M+MT(3tadan)/3**<br>Bu yerda: OB- oraliq baholash; N.T- nazorat topshiriqlari;<br>A.M- amaliy mashg'ulotlar; MT- mustaqil ta'lim topshiriqlari.<br>Oraliq baholash bandlarining har biri kamida 60% holatda o'zlashtirilishi lozim. Agar nazorat ishini yoki biror bandning o'zlashtirilishi 60% dan kam bo'lsa, o'zlashtirilmagan hisoblanadi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.<br>**OB≥60%,**<br>**Yakuniy nazorat tarkibi:** auditoriya mavzularidan (50%) va mustaqil ta'lim mavzularidan (50%) yakuniy nazorat savollari tuziladi.<br>Yakuniy nazoratda kamida 60% ni o'zlashtirilishi shart. Agar 60% dan kam bo'lsa yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi. **YaN≥60%.**<br>Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.<br>Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlar 2-5 baho oralig'da baholanadi.<br>Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishdan o'rtacha 3,4,5 baho olgan talaba oraliq nazorat (ON)dan o'tgan hisoblanadi.<br>Yakuniy nazorat 2-5 baho oralig'da baholanadi. Yakuniy nazorat turi bo'yicha 3,4,5 baho olgan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. Aks holda qoniqarsiz baho (2 baho) olgan talaba akademik qarzdor sifatida qayta topshirishga qoldiriladi. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1 Tuychiyev A., Qo'ziyev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 530 b.<br>2 Tuychiyev A., Qo'ziyev I., Avloqulov A., Masharipov O., Avazov I. Audit. Elektron darslik. – T.: TMI. 2021 y.<br>3 Hamdamov B.K. Auditning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 320 b.<br>4 Kuljonov O., Ortiqov X., YUgay L., Tuxsanov X., M.Xayitboev Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –246 b.<br>5 Norbekov D., Misirov K., Tashmanov /. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.<br>**Qo`shimcha adabiyotlar**<br>1 Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон, 2023.<br>2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga |